



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 278 sahifa,
1-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	10
<i>Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi</i>	
Talabalarning xulqidagi devyatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....	16
<i>Ergashev Jo'rabek Xalilovich</i>	
Zo'ravonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'ravonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari.....	19
<i>Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi</i>	
Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari.....	24
<i>Jonbo'tayeva Maxarramxon</i>	
O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'rni.....	27
<i>Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish.....	31
<i>Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi</i>	
Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish.....	35
<i>Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li</i>	
O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	39
<i>Norbutayeva Dilafuz Abdurasulovna</i>	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	43
<i>Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna</i>	
Model for Improving Students' Professional Competencies Based on Motivational Learning Approach.....	49
<i>Alibekova Mahzuna</i>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirishning tuzilmasi va pedagogik komponentlari... 54	54
<i>Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich</i>	
Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 14-16 yoshli sportchi qizlarda mashg'ulotlar davomiyligi.....	59
<i>Oralova Bibixol Husniddin qizi, G'ulomova Maftuna Sayfulla qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish.....	64
<i>Ruzmetova D. A.</i>	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari.....	68
<i>Saydanova Dilafuz Sadirdinovna</i>	
Xorijiy tajribalar va zamonaviy yondashuvlar asosida tyutorlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimini takomillashtirish.....	75
<i>Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich</i>	
Effective Classroom Activities for Developing Speaking Skills Among EFL Learners.....	79
<i>Akhmatova Munisa Orif qizi</i>	
Xalqaro va milliy baholash dasturlarini hisobga olgan holda boshlang'ich ta'lim mazmunini yangi ta'lim trendlari bilan boyitish.....	86
<i>Gulmira Abdullayeva, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning shaxs identifikatsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik omillari.....	90
<i>Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna</i>	
Analysis of the Methodology for Developing Students' Creative Thinking Competence Using Artificial Intelligence Tools Based on STEAM Educational Technologies.....	94
<i>Tursunaliyeva Nazokat Tokhir qizi</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida e-Portfolio ma'lumotlarini markazlashmagan tarzda boshqarishning afzalliklari va muammolari	102
<i>Yusupova Dono Adambayevna, Jalolov Tursunbek Sadriddinovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv-tolerantlik haqidagi qarashlari tahlili	110
<i>Amangeldiyeva Adolat Ravshanbek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashning samarali shakl, metod va didaktik vositalari	115
<i>Go'zal Qurbonova</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarb pedagogik masalalari.....	121
<i>Muratova Munavvar O'rol qizi</i>	
Tarkibida toponimlar mavjud maqol va matallarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularni o'qitishning lingvodidaktik asoslari.....	126
<i>Usmonova Zamira Jaxongirovna</i>	
Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda tassavur fenomenologiyasi	130
<i>Axmedova Shaxlo Shoxob qizi</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (haykaltaroshlik san'ati misolida).....	133
<i>Panayeva Maloxat Muminovna</i>	
Взаимосвязь склонности к сравнению внешности, интернет-зависимости и уровня притязаний у студентов-юношей	136
<i>Багдасарова Диана Левоновна</i>	
Роль каракалпакской народной национальной музыки в формировании духовно-нравственных качеств учащихся	141
<i>Зарымова Турсынай Бердибай кызы</i>	
A Review of the Literature on Stem Cells in Dentistry	145
<i>Ruziyeva Kamola Akhtamovna</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida estrada san'atini o'qitish masalalari (gitara cholg'usi misolida)	150
<i>Abdullayev O'tkir Sadullayevich</i>	
Talabalarda innovatsion kasbiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari	154
<i>Avezov Davronbek Soburovich</i>	
O'zbek xalq pedagogikasi an'alarining zamonaviy ta'lim tizimidagi transformatsiyasi	158
<i>Erkaboyeva Nigora Shermatovna</i>	
Texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarida ingliz tilini mustaqil o'rganishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	163
<i>Mamatqodirova Gulnigor Rustamjonovna</i>	
Yangi dunyoviy tartibotning shakllanishi jarayonida siyosiy taraqqiyot barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash muammolari	168
<i>Nazarov Alisher Narimanovich</i>	
Ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smir o'g'il bolaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.....	171
<i>Qodirov Jahongir Neymat o'g'li</i>	
Kutubxona muhitida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari.....	176
<i>Qosimova Xolida Nabiyevna</i>	
Jismoniy imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish	179
<i>Raxmatullayeva Durdoni Fazliddin qizi</i>	
Personalized Approach to the Treatment of Generalized Periodontitis in the Prediction of Cardiovascular Complications Based on Salivary Proteomic Profiling.....	182
<i>Shodiev O. U., Nazarova N. Sh., Agababayan I. R.</i>	
O'smirlarda irratsional ustanovkalar shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari	187
<i>Toshboltayeva Nodira</i>	
Роль интерактивного лингвокультурологического пространства в формировании лингвокультурной компетенции студентов национальных групп филологических направлений.....	191
<i>Рустамова Ферузахон Махмуджановна</i>	



Talabalarining darsdan tashqari vaqtda mustaqil ravishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishini shakllantirish	196
Dusanov Shuxrat Abdiraakovich	
Kutubxona muhitida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari	201
Qosimova Xolida Nabiyevna	
Jismoniy tarbiya darslarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetensiyasini takomillashtirish mexanizmlari	205
Xoliqnazarov Azamat Begaliyevich	
Oliy ta'lim talabalarida kreativ fikrlashni fanlararo integratsiya asosida shakllantirish	209
Allanazarova Dilobar Baxromovna	
"Alpomish" dostonida obrazlar nutqidagi pedagogik qarashlar	213
Boboqulova Aziza Adizovna	
Researching the Biochemistry and Physical Chemistry of Oral Fluid in Kids Who Are Acting Strangely	217
Eraliyeva Zulfiya Makhmudovna, Buzruzkoda Javohir	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mikro matnlarni o'qitishga qaratilgan kognitiv metodlar	222
I. Matrasulova	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishda raqamli didaktik vositalardan foydalanish metodikasi	225
Komilova Dilnozaxon Abdulhayevna, Xoliqova Mubinabonu Jamoliddin qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida onomastik leksikani lingvokulturologik yondashuv asosida o'qitishning strategik-metodik asoslari	229
Mamatqulova Baxtixon Ravshanovna	
Raqamli matnlarning lisoniy va pragmatik xususiyatlari	232
Mashrapova Sevara Xabibovna	
Extensive Pelvic Ureteral Abnormalities and Reconstructive Operations in Patients	237
Mukhsinov Sardor	
Pedagogikada metodlardan foydalanish	241
Maxmudova Nargiz Djumaniyazovna	
Diqqat yetishmasligi giperaktivlik buzilishini davolash usullari	245
Otbasarova Umida Mexmonovna, Inogamova Rano Bahodirovna	
Talabalardagi sanogen tafakkurning psixologik xususiyatlarini empirik tadqiq etish masalasi	249
Tulyaganova Dilnoza Ulug'bek qizi	
Raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning xorijiy va milliy tajribasini qiyosiy tahlil qilish	253
Abdullayev Sherzodbek	
Context, Intention, and Meaning in English Language Teaching: Developing Pragmatic Awareness in Learners of English as a Foreign Language	256
Keldiyarova Shaxrizoda, Keldiyorova Mohlaroyim	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni steam yondashuvi yordamida og'zaki muloqotga o'rgatish mashqlar tizimi	267
Yunusova Malika Miralimovna	
Культурные и исторические коды франции в автобиографической прозе марселя паньоля	270
Рахманкулова Дилафруз Азимовна	
Трансформация роли преподавателя в условиях цифровизации высшего образования	274
Рахматова Нигина Исломовна	



RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING XORIJIY VA MILLIY TAJRIBASINI QIYOSIY TAHLIL QILISH

Abdullayev Sherzodbek

Andijon viloyati Izboskan tumani
 12-umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori

Annotatsiya: Maqolada Yaponiya, AQSh va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasi misolida raqamli ta'lim texnologiyalarini umumiy o'rta ta'lim tizimiga joriy etish modellari O'zbekiston tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Har bir modelning kuchli va zaif tomonlari aniqlanib, milliy ta'lim tizimi uchun moslashtirilgan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, xorijiy tajriba, GIGA School, milliy model, qiyosiy tahlil, ta'lim siyosati.

Abstract: The article presents a comparative analysis of models for integrating digital educational technologies into general secondary education systems, drawing on the experiences of Japan, the United States, and the European Union and comparing them with the experience of Uzbekistan. The strengths and weaknesses of each model are identified, and adapted recommendations for the national education system are proposed.

Key words: digital education, international experience, GIGA School, national model, comparative analysis, education policy.

Аннотация: В статье проводится сравнительный анализ моделей внедрения цифровых образовательных технологий в систему общего среднего образования на примере опыта Японии, США и стран Европейского союза в сопоставлении с опытом Узбекистана. Выявлены сильные и слабые стороны каждой модели, а также разработаны адаптированные рекомендации для национальной системы образования.

Ключевые слова: цифровое образование, зарубежный опыт, GIGA School, национальная модель, сравнительный анализ, образовательная политика.

KIRISH

Dunyo bo'ylab umumiy o'rta ta'lim tizimlarini raqamlashtirish yagona shablon asosida emas, balki har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti, ta'lim falsafasi va resurs imkoniyatlariga mos modellar orqali amalga oshirilmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hisobotlarida ta'kidlanishicha, raqamlashtirish darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda ham natijalar bir xil emas, bu esa milliy kontekstning ahamiyatini ko'rsatadi. Ushbu maqolada uch xil model – Yaponiyaning markazlashgan davlat dasturi, AQShning bozor yo'naltirilgan modeli hamda Yevropa Ittifoqining yagona raqamli makon strategiyasi tahlil qilinib, O'zbekiston amaliyoti bilan qiyosiy solishtiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

2019-yildan boshlab Yaponiyada amalga oshirilayotgan GIGA School dasturi har bir o'quvchini shaxsiy planshet yoki noutbuk bilan ta'minlash hamda maktablarni yuqori tezlikdagi internet tarmog'iga ulashga asoslangan. Dasturning asosiy afzalligi uning markazlashgan moliyalashtirilishi va barcha maktablarda yagona texnik standartlarning joriy etilganidadir. Biroq mutaxassislarning ta'kidlashicha, o'qituvchilar tomonidan zamonaviy pedagogik metodikalar yetarli darajada o'zlashtirilmagani sababli, raqamli texnologiyalar ko'pincha an'anaviy darslarni shunchaki elektron shaklga o'tkazish bilan cheklanib qolmoqda.

AQSh Ta'lim vazirligining Milliy ta'lim texnologiyalari rejasida markazlashgan yagona dastur o'rniga shtatlar va maktab okruglariga keng vakolatlar berilgan bo'lib, raqamli vositalarni tanlash mahalliy ehtiyojlardan kelib chiqib amalga oshiriladi. Ushbu yondashuvning asosiy afzalligi moslashuvchanlik va innovatsion kompaniyalar bilan hamkorlikning rivojlanganligida namoyon bo'lsa, uning kamchiligi mintaqalar o'rtasidagi raqamli tengsizlikning kuchayishidir.

Selwyn ta'kidlaganidek, bozor mexanizmlariga asoslangan modellarda texnologiyalarni tanlash ko'pincha pedagogik ehtiyojlardan ko'ra texnologik kompaniyalarning tijorat manfaatlari bilan belgilanadi. Natijada ta'lim sifatini oshirishdan ko'ra, tijorat maqsadlariga xizmat qiluvchi raqamli vositalarning ommalashuvi kuzatilishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yevropa Komissiyasining 2021–2027-yillarga mo'ljallangan Raqamli ta'lim harakatlar rejasida ikki ustuvor yo'nalish belgilangan: yuqori sifatli raqamli ta'lim ekotizimini rivojlantirish hamda fuqarolarning raqamli kompetensiyalarini oshirish. Ushbu model davlatlar o'rtasida tajriba almashish va umumiy standartlarni joriy etishga alohida e'tibor qaratadi. Bu esa, ayniqsa, kichik davlatlar uchun resurslardan samarali foydalanish imkonini beruvchi tejamkor yechim hisoblanadi. O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini tubdan yaxshilashga qaratilgan me'yoriy hujjatlarda maktablarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan jihozlash, "Raqamli maktab" platformalarini joriy etish hamda pedagoglarni qayta tayyorlash vazifalari belgilangan. Mazkur yondashuv, asosan, Yaponiya modeliga yaqin bo'lib, markazlashgan va davlat boshchiligidagi boshqaruv tamoyiliga asoslanadi. Biroq milliy modelni takomillashtirishda hududlar o'rtasidagi infratuzilmaviy tafovutlarni kamaytirish hamda metodik qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida qaralishi lozim.

PISA-2022 natijalari tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli vositalardan foydalanish darajasi yuqori bo'lgan, biroq pedagogik qo'llab-quvvatlash sust tashkil etilgan davlatlarda o'quvchilarning natijalari nisbatan past bo'lgan. Ushbu xulosa O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ham muhim amaliy ahamiyatga ega.

UNESCO tomonidan ilgari surilgan "yangi ijtimoiy shartnoma" konsepsiyasiga ko'ra, raqamli ta'lim faqat texnologiyalarni joriy etishni emas, balki o'qituvchi, o'quvchi va jamiyat o'rtasidagi yangi hamkorlik munosabatlarini shakllantirishni ham anglatadi. Mazkur yondashuv milliy ta'lim strategiyalarini ishlab chiqishda albatta inobatga olinishi zarur. Qiyosiy tahlil natijalari asosida quyidagi umumiy xulosalar shakllantirildi.

*Birinchi*dan, faqat texnik ta'minotning o'zi yetarli emas, barcha tahlil qilingan modellarda pedagogik qo'llab-quvvatlash hal qiluvchi omil hisoblanadi.

*Ikkinchi*dan, markazlashgan model resurslarni tezroq taqsimlash imkonini bersa, moslashuvchan model mahalliy ehtiyojlarga samaraliroq javob beradi.

*Uchinchi*dan, milliy va hududiy monitoring tizimlari yo'lga qo'yilmas ekan, har qanday modelning samaradorligi pasayadi.

*To'rtinchi*dan, raqamli ta'lim siyosatini ishlab chiqishda nafaqat texnologiya ishlab chiquvchilari, balki pedagoglar, psixologlar hamda ota-onalar vakillarining ham faol ishtirok etishi qabul qilinayotgan qarorlarning amaliyotga mosligini oshiradi.

Ushbu yondashuv, ayniqsa, Finlyandiya va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasida yaqqol namoyon bo'lib, ularda ta'lim siyosati keng jamoatchilik muhokamasi asosida shakllantiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Finlyandiya ta'lim tizimida markazlashgan qat'iy nazorat o'rniga o'qituvchilarga keng pedagogik erkinlik berilgan. Har bir maktab va o'qituvchi qaysi raqamli vositadan hamda undan qanday foydalanishni mustaqil ravishda belgilaydi. Ushbu yondashuvning asosini o'qituvchilik kasbiga bo'lgan yuksak ijtimoiy ishonch va pedagoglarning yuqori kasbiy tayyorgarligi tashkil etadi. Natijada Finlyandiyada raqamli vositalar tayyor katalog asosida emas, balki har bir o'qituvchi tomonidan dars maqsadiga mos ravishda shakllantirilgan "vositalar to'plami" sifatida qo'llaniladi. Mazkur model yuqori malakali pedagog kadrlar mavjud bo'lgan ta'lim tizimlari uchun samarali hisoblanadi. Biroq pedagog kadrlar tayyorgarligi hali yetarli darajada shakllanmagan tizimlarda ushbu modelni joriy etish qo'shimcha tayyorgarlik bosqichini talab qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Finlyandiyada o'qituvchilarning 87 foizi raqamli vositalarni mustaqil o'zlashtirib, ularni dars jarayonida samarali qo'llaydi. Tahlil qilingan barcha modellarda takrorlanib turuvchi bir qator xatarlar ham aniqlandi.

*Birinchi*dan, texnologiyani "maqsad" emas, balki "vosita" sifatida talqin qilish zarurligi ko'pincha e'tibordan chetda qolgan. Natijada texnik vositalar sonining ortishi o'z-o'zidan ta'limdagi muvaffaqiyat mezonini sifatida baholangan.

*Ikkinchi*dan, raqamli vositalardan foydalanishda ma'lumotlar xavfsizligi va o'quvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish masalalari ko'pincha ikkinchi darajali vazifa sifatida qaralgan. Bu esa keyinchalik huquqiy va axloqiy muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan.



Uchinchidan, raqamli vositalarning xarid qiymati hamda ularga texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari dastlabki byudjetda to'liq hisobga olinmagan holatlar ham uchragan. Natijada bunday loyihalarning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligi xavf ostida qolgan.

Singapur ta'lim tizimi raqamlashtirish bo'yicha dunyodagi eng izchil strategiyalardan biri sifatida e'tirof etiladi. "Future Schools" dasturi doirasida avvalo tanlab olingan maktablar pilot maydonchalarga aylantiriladi, sinovdan o'tgan eng samarali amaliyotlar esa keyinchalik butun mamlakat bo'ylab bosqichma-bosqich joriy etiladi. Mazkur yondashuvning asosiy afzalligi xatarlarni minimallashtirish hamda amalda o'zini oqlagan metodikalarni keng miqyosda tatbiq etish imkoniyatini yaratishidir. Bunday "pilot va kengaytirish" modeli O'zbekiston uchun ham istiqbolli yechim bo'lishi mumkin. Xususan, yangi raqamli metodikalarni dastlab ayrim Prezident maktablari yoki ixtisoslashtirilgan maktablarda sinovdan o'tkazish, keyinchalik esa olingan natijalar asosida ularni bosqichma-bosqich ommalashtirish samaraliroq va xavfsizroq yondashuv hisoblanadi. Janubiy Koreyada an'anaviy bosma darsliklarni bosqichma-bosqich raqamli darsliklar bilan almashtirishga qaratilgan uzoq muddatli davlat dasturi amalga oshirilmoqda. Mazkur dastur doirasida raqamli darsliklar faqat matn bilan cheklanmay, balki interaktiv testlar, videodarslar hamda sun'iy intellekt asosidagi moslashuvchan mashqlarni ham o'z ichiga oladi.

Biroq ushbu islohotni amalga oshirish jarayonida ota-onalar va ayrim pedagoglar tomonidan ekran qarshisida o'tkaziladigan vaqtning ortishi hamda uning ko'rish qobiliyati va diqqat salomatligiga ta'siri yuzasidan xavotirlar bildirilgan. Bu holat O'zbekistonda ham raqamli darsliklarni joriy etishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ekran vaqtiga oid ilmiy asoslangan me'yorlarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlil qilingan modellarni umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, ularning har biri o'ziga xos ustunliklarga ega. Jumladan, Yaponiya modeli tezkor va teng ta'minot tizimi bilan, AQSh modeli moslashuvchanlik va innovatsion hamkorlik bilan, Yevropa Ittifoqi modeli standartlashtirish hamda tajriba almashish mexanizmlari bilan, Singapur modeli bosqichma-bosqich joriy etish orqali xatarlarni kamaytirishi bilan, Janubiy Koreya modeli esa mazmunan boy raqamli ta'lim resurslari bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, barcha modellarda o'qituvchilarni tayyorlash sifati hamda ekran vaqti bilan bog'liq salomatlik masalalari umumiy zaif jihatlar sifatida qayd etilgan.

O'zbekiston milliy modelini shakllantirishda mazkur besh modelning eng samarali jihatlarini tanlab olish va ularni mamlakatning ijtimoiy-madaniy sharoitlariga moslashtirish strategik ahamiyat kasb etadi. Xususan, davlat boshchiligidagi markazlashgan moliyalashtirish (Yaponiya), pilot maydonchalar asosida bosqichma-bosqich joriy etish (Singapur) hamda yagona sifat standartlarini shakllantirish (Yevropa Ittifoqi) tamoyillarini uyg'unlashtirish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston uchun eng maqbul yondashuv davlat boshchiligidagi markazlashgan investitsiyalarni hududiy moslashuvchanlik hamda kuchli metodik qo'llab-quvvatlash tizimi bilan uyg'unlashtirishdan iborat. Mazkur "gibrid model" nafaqat texnik tenglikni ta'minlaydi, balki ta'lim sifatining barqaror o'sishiga ham xizmat qiladi. Kelgusida ushbu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlarni har bir hududning o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini hisobga olgan holda moslashtirilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir. Bunday tadqiqotlar natijasida ishlab chiqiladigan tavsiyalar nafaqat Ta'lim vazirligi darajasida, balki har bir maktab va har bir pedagog faoliyatida amaliy metodik qo'llanma sifatida foydalanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. OECD. Education at a Glance 2023. – Paris: OECD Publishing, 2023.
2. Selwyn N. Education and Technology: Key Issues and Debates. 2nd ed. – London: Bloomsbury Academic, 2016.
3. U.S. Department of Education. National Educational Technology Plan. – Washington, D.C., 2017.
4. European Commission. Digital Education Action Plan 2021–2027. – Brussels, 2020.
5. MEXT. GIGA School Program Overview. – Tokyo, 2021.
6. UNESCO. Reimagining Our Futures Together. – Paris: UNESCO Publishing, 2021.
7. OECD. PISA 2022 Results. – Paris: OECD Publishing, 2023.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.